

Ta'lim sifati kuni

“TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti rektorining 2022 yil 14 fevraldagi -sonli buyrug'ida kafedralarda “Ta'lim sifati kuni” grafik asosida tashkil etish belgilangan.

Joriy yilning 26 fevral shanba kuni grafik bo'yicha “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasida professor-o'qituvchilar G-bino 501-xonada soat 10⁰⁰ dan 12⁰⁰ gacha “Ta'lim sifati kuni” seminari bo'lib o'tdi.

“Ta'lim sifati kuni” seminariga Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor professor A.T.Saloxiddinov va Gidromelioratsiya fakulteti dekani A.M. Fatxullayevlar tashrif buyurdi. Seminarda kafedra professor-o'qituvchilar kelgusi haftada fanlardan o'tiladigan mavzular bo'yicha taqdimotlar qilishdi. Seminar qizg'in baxslarga boy ruhda bo'lib o'tdi. Bunda professorlar o'z tajribalarini yosh o'qituvchilar bilan o'rtoqlashib, zarur tavsiyalar berdilar.

